

JIDUda Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining 2025-yil 10-aprelda o'tkazilgan yig'ilishida universitetni yanada rivojlantirish va faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2024-yilgi moliyaviy faoliyat yakunlari hamda 2025-yilga mo'ljallangan moliyaviy-iqtisodiy ishlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu reja xarajatlarni optimallashtirish va raqamli nazoratni kuchaytirish choralarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish natijalari ko'rib chiqildi va MERI Group of Institutions bilan hamkorlikda "Menejment" yo'nalishi bo'yicha yangi magistratura dasturini ochish masalasi muhokama qilindi. Bundan tashqari, universitetning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgarishlar tasdiqlandi.